SINONIMLAR LINGVOSTILISTIKASI
(Asqad Muxtor she'riyati misolida)

Zokirova Tanzila Zohidjon qizi,
Namangan davlat universiteti
Lingvistika (o'zbek tili) mutaxassisligi magistranti
Email: mahmudjonovatanzila@gmail.com

Annotatsiya: *ushbu maqolada Asqad Muxtor she'rlaridagi ayrim sinonim so'zlarning lingvostilistik tahlili berilgan.*

Kalit so'zlar: *sinonim, affiks, funksional, stilistik, parema, motiv.*

Sinonimiya, stilistik sinonimlar funksional stillar qatorida stilistika uchun eng muhim halqa hisoblanadi.[1] Chunki sinonimlar orqali ifoda boyligini oshirish hamda fikrni lo'nda ifodalash mumkin. Shuning uchun adabiy turning barchasida ijodkor maqsadini to'kis ochib berishda ma'nodosh so'zlardan salmoqli foydalanilishi kuzatiladi. Jumladan Asqad Muxtor she'riyatida ham buni bevosita ko'p o'rinlarda ko'rishimiz mumkin.

*Rang-**barangsiz** – men ham **xilma-xil**,*
Sizning muhringiz bor mening xulqimda.
Quvvat berdingizki, suzaman dadil,
Hayot deb atalgan bebosh to'lqinda.

Ushbu she'rda *rang-barang* hamda *xilma- xil* so'zlari sinonim tarzda bir misrada foydalanilgan. Bu o'rinda sinonimlar "*siz*" va "*men*" olmoshlari uchun bir ma'noni anglatuvchi ikki xil leksika sifatida yordamga keladi. She'riyatda sinonimiya bilimdoni bo'lishning ahamiyati shundaki, misralardagi vazn hamda ma'no xususiyatlariga zarar yetkazmagan holda uning ta'sirchanligini ta'minlaydigan leksik variantlar qo'llash muhim sanaladi. Masalan, "*muhr*" so'zi o'rnida *"imzo"*, *"xulq"* o'rnida *"xarakter"*, *"quvvat"* o'rnida *"kuch"*, *"bebosh"* o'rnida *"o'zboshimcha"* so'zlaridan foydalanilganda she'rning umumiy sifati o'zgargan bo'lar edi.

...Yeng shimarib jadallik bilan,
*Dilda **g'ayrat, shijoat,** dolg'a,*
Mangulikning malikasi – Go'zallik bilan
Bahodir – Haqiqat bosmoqda olg'a!

[1] Қунғуров.Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. – Тошкент: Фан,1980.

Sinonimlar so‘zlovchining shaxs, predmet va voqealikka munosabatini qo‘shimcha izohsiz aks ettiradi, nutqni ravon, jozibali, ta’sirchan qiladi, voqealikning nafis nuqtalarigacha ifodalashda asosiy vosita hisoblanadi.[2] Har qanday mohir ijodkor asarida ushbu fikrning amaliy ifodasini kuzatish mumkin. Yuqoridagi bandning ikkinchi misrasidagi “shijoat”, “g‘ayrat” so‘zlari sinonimik qatorni yuzaga keltirgan. Shoir birinchi misrada “yeng shimarmoq” iborasini qo‘llaydi. “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati”da “astoydil, jiddiy ravishda” kabi izohi keltirilgan. Bu parema izohiga mos tarzdagi stilistik motivni “jadallik”, “shijoat” so‘zlari bergan. Aynan keyingi qatorda sinonimlarni keltirish orqali she’r ruhiyatini yanada oydinlashtirgan. Ifodaning silliqligi hamda ravon bo‘lishiga erishgan. Bu esa adabiy nutqning eng asosiy, muhim *xususiyati* hisoblanadi.

Aytilmagan haq gap,
Ichga yutgan g‘azab, ***jur’atsizlik, qurbsizliklarim-***
Hammasi og‘riydi yaraday qaqshab,
Hamon kezaman men, mana, tun yarim…

Ushbu o‘rinda *-lar* affiksi yordamida ma’nodosh so‘zlar fikrga kuchaytiruv, ta’kidlash munosabatini bildirgan. Bundan tashqari poetik nutqqa salbiy ottenka kiritgan holda voqea-hodisaning nozik nuqtalarigacha mufassal bayon qilish imkonini bergan. “Jur’at”, “jur’atsizlik” so‘zlari ham og‘zaki ham badiiy nutqda mavjud bo‘lsa, “qurb”, “qurbsizlik” so‘zlari ko‘pincha badiiy nutqda faol.

Qog‘oz – aql, talant,u – ***hukm, taqdir****.*
Chulg‘aganda so‘l-u sog‘ingni,
Bolg‘alaydi tilingni qo‘l-oyog‘ingni,
So‘z-u imon nohaq, faqat u haqdir.

Sinonimlarning stilistik xususiyatlaridan biri gaplar ichida o‘rinsiz takrorga chek qo‘yadi. U obyektni aks ettirishda va tasvirlashda, mazmunni ifodalashda va uni bayon qilishda muhim vazifa bajaradi. “Hukm” hamda “taqdir” ot sinonimlar hisoblanadi.

Bir zumda o‘tgandir uning hayoti.
Xayol esa boqiy zamon – azzamon.
Tugamas aqlning ***sabr-u saboti****,*
Tegirmon toshidek aylanar hamon.

Sinonimik qatorda, ya’ni bir umumiy ma’noga ega bo‘lgan so‘zlar orasida stilistik bo‘yoqdor so‘zlar mavjud bo‘ladi va ular turli vaziyatlarda tanlab ishlatiladi.

[2] Iminov M., Nu‘monov T., Boboxonova D. O‘zbek tili uslubiyati masalalari. – Namangan nashriyoti, 2007.

“Sabr” va “sabot” o‘zaro sinonim hisoblanadi. “Sabr” barcha uslublar uchun xos bo‘lsa, “sabot” uslubiy chegaralangan bo‘lib, poetik nutqda keng qo‘llaniladi.

Tush-u cho‘pchaklarga ishonmayman zarra,
Meni kechir mushtipar ona.
Ammo ishonaman dov-daraxtlar-la,
Robitamiz bordir, ***sirli, pinhona.***

“Sirli”, “pinhona” so‘zlari semantik munosabatiga ko‘ra uslubiy sinonimlar sirasiga kiradi. “Sirli” – uslubiy betaraf, “pinhona” – stilistik jihatdan chegaralangan, asosan, badiiy uslubda qo‘llanilishi faol.

Yod oldi butun,
Har bir ***iborasi, kalimasini.***
Qaysi biri yozdi?
Mehrisimikin, Salimasimikin, Halimasini?

“Ibora” va “kalima” ot sinonimlar hisoblanib, “gap”, “so‘z” kabilarga ma’nodosh tarzda qo‘llanganda uslubiy jihatdan chegaralangan, badiiy stilga xos bo‘ladi.

Shunchalik hayajon bilan kutganim,
Birpasda yuz berdi, ***oson va sodda****:*
Poyezd to‘ztadi-yu, yana yurib ketti…
Xayollarim qoldi sarhadda:

She’rdagi “oson”, “sodda” sifatlari sinonimlikni yuzaga keltirgan. Bu so‘zlar barcha uslublarda faol qo‘llanadi.

…Balki planetalar ***uqalanadi****.*
Hamma narsa so‘nar, ***yemirilar****,*
Faqat quyosh,
Quyosh yonadi!

Bandda “uqalanmoq”, “yemirilmoq” fe’l sinonimlari mavjud. “Uqalanmoq” so‘zining leksik ma’nosi biror bir narsaning mayda bo‘laklarga ajralib ketish holatini bildiradi. Ko‘proq og‘zaki nutq hamda badiiy adabiyotga xos. “Yemirilmoq” so‘zi esa biror bir narsaning o‘z holatini yo‘qotib, parchalanib ketishini ifodalaydi. Rasmiy, adabiy va ilmiy uslublarda keng foydalaniladi.

Asqad Muxtor o‘zining badiiy asarlarida tilimiz boyligidan samarali foydalangan holda sinonim so‘zlarni keng qo‘llagan. Ulardan mazmuniy, emotsional hamda stilistik rang-baranglik yaratish vositasi sifatida ishlatgan. Yuqoridagi misol va tahlillardan ko‘rinib turibdiki, adib sinonimlar masalasiga badiiy stilni nozik his qilgan holda yondashgan.

Foydalanilgan adabitorlar:

1. Қунғуров.Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. – Тошкент: Фан,1980.

2. Iminov M., Nu‘monov T., Boboxonova D. O‘zbek tili uslubiyati masalalari. – Namangan nashriyoti, 2007.

3. Асқад Мухтор. Танланган асарлар – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти,1983.

4. Asqad Muxtor. Turkiy adabiyot durdonalari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022.

